

ZILZILA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR VA ZILZILA SODIR BO‘LGAN PAYTDA QO‘LLANILISHI KERAK BO‘LGAN QO‘LANMALLAR HAQIDA

Rustamova Difuza

Andijon Olimpiya Paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi

Oychiroy Umaraliyeva Sherali qizi

Andijon Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

1- bosqich 105-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada zilzilaga oid umumiy tushunchalar, kelib chiqishi va sabablari, turlari, seysmik o‘lkalar va yuz bergan zilzilalar va oqibatlar, zilzila sodir bo‘lgan paytda qilinishi kerak bo‘lgan qo‘llanmalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zilzila, silkinishlar, yemiruvchi va buzuvchi zilzilalar.

Abstract: The article contains information about the general concepts of earthquakes, their origin and causes, types, seismic regions and earthquakes that have occurred and their consequences, and what to do when an earthquake occurs.

Key words: earthquake, tremors, destructive and destructive earthquakes,

Аннотация: В статье содержится информация об общих понятиях о землетрясениях, их происхождении и причинах, типах, сейсмических регионах и произошедших землетрясениях и их последствиях, а также о том, что делать при возникновении землетрясения.

Ключевые слова: землетрясение, толчки, разрушительные и разрушительные землетрясения,

KIRISH

Zilzila bu yer ichki qismidan uning sirtiga tomon yo‘nalgan kuch ta‘siridan yer po‘stining ayrim qismlarini to‘satdan silkinishiga zilzila deyiladi. Ba‘zan silkinishlar tashqi omillardan (tog‘dagi qulashlar, katta meteoritning yer yuzasiga tushishi va boshqalar) ham bo‘ladi. Bir necha yuz yillar davomida kuzatilgan ma‘lumotlar bu hodisani sayyoramizning ayrim seysmik zonalarida ko‘p bo‘lib turishini ko‘rsatadi. Yer yuzasini yemiruvchi, buzuvchi zilzilalarning ko‘pi Pireney, Apenin, Karpat, Bolqon, Kavkaz tog‘lariga va O‘rta Osiyoning tog‘li rayonlariga, janubda Hindiqush, Himolay tog‘lariga va Tinch okean halqasiga to‘g‘ri keladi. Ba‘zi joylar borki, u yerlarda butunlay yoki deyarli zilzila bo‘lmaydi, bunday yerlar (Germaniya, Polsha past tekisligi, Rossiya tekisligi, Finlandiya, Kanada, Braziliya va h.k.) seysmik o‘lkalar deb ataladi. Zilzila sabablarini seysmologiya fani o‘rganadi. Seysmologiya (yunoncha seysmos - zilzila, logos - fan) - zilzilalar haqidagi fan. Zilzilaning sabablari, seysmik to‘lqinlarning yer ichida tarqalishi, zilzilalar geografiyasi va zilzilalar oqibatiga qarshi kurash yo‘llarini o‘rganadi.

Zilzila yer po‘stining ostki qismidagi massalarning, jumladan, mantiyadagi saralanish jarayonida kuchli harakat paydo bo‘ladi va tebranma to‘lqinlar zilzila markazidan atrofga va yer yuzasiga tarqaladi. Zilzilaning dastlabki harakatidan keyin ham yer ichida saqlanib qolgan ortiqcha energiya va yer po‘stining ayrim qismlarini tebranishiga sabab bo‘ladi. Yer sirtining tebranishi, unga ichki qatlamlardan o‘tib keluvchi egiluvchan to‘lqinning urilishidan kelib chiqadi. Zilzila markazidan tarqalgan to‘lqinning urilishga

ko’ra (tik, qiya) ayrim o’zgarishlar sodir bo’ladi (daraxtlar og’ib, yana tiklanadi, imorat bezaklari buziladi, haykallar qulaydi). Zilzila bir necha sekund davom etsa-da, keyinchalik bir necha kun, oy va yillar davomida goh kuchli, goh

kuchsiz bo’lib qaytariladi. Masalan, 1887 yil 28 mayda Olmaotada va 1966 yil 26 aprelda Toshkentda bo’lgan zilzilaning uch oy davomida 800 dan ortiq qaytarilishi qayd qilingan. 1870 yil 28 iyunda Gretsiyada yuz bergan zilzilaning birinchi uch kunida 86 dan ortiq zarba, ya’ni har uch sekundda bir to’lqin bo’lgani aniqlangan. Bu yerda uch yil davomida 750000 marta zarba (300 tasi Yemiruvchi zarba) bo’lgan. Maxsus asboblarga sezadigan zilzila mikroseysmik, asboblarsiz seziladigani esa makroseysmik deb aytiladi.

Seysmograf (yunoncha seysmos - zilzila, grafo - yozaman) - zilzila bo’lganda yoki moddalar portlatilganda yer po’stida ro’y beradigan tebranishlarni qayd qiladigan asbob. Seysmograf asbobi o’rnatilgan 700 ga yaqin stansiyalar bor. Har yili bular 10000 tacha zilzilani, ya’ni har soatda bitta zilzilani hisobga oladi. Buning yarmidan kamrog’i kuchli va xavfli zilzila hisoblanadi.

Kuchli zilzilalar bo’layotganda hamma ham xavfsiz joyda bo’la olmaydi. Kimdir ko’p qavatli bino ichida yoki hovlida, kimdir ko’chada, yana boshqa birov transportda bo’lishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi zilzila vaqtidagi shu va boshqa holatlarda nima qilish kerakligini batafsil tushuntirdi.

Yer qimirlaganda uyning eng xavfli joylari– ichki va tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoya maydonchalari bo’lishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Xonaning ichida bo’lganda:

1. Ko’p qavatli uyning birinchi qavatda, xom g’ishli, pishgan g’ishtli yoki paxsa devorli shaxsiy uylarda yashasangiz, yer qimirlash boshlanishi bilan 15-20 soniya ichida darhol uyning ichidan tashqariga chiqib keting va elektr simlari, gaz quvurlari va baland imoratlar tagidan uzoqroqqa, ochiq joyga o’ting.

Chiqish yo’llari, eshiklar odamlar bilan tirband bo’lib, tashqariga tez chiqishni qiyinlashtiradi. Bunda 1-qavatda yashasangiz derazadan ham chiqishingiz mumkin.

2. Oilangiz a’zolari va o’zingiz kvartirangizda, pod’yezdda, uyingizda gaz, elektr, suvni o’chirish yo’llarini bilishingiz lozim.

3. Agar xonaning ichida qolsangiz, oldindan belgilab olingan xavfsiz joyga turib oling. Mabodo yuqoridan suvoq parchalari, yoritgich asboblari, oyna siniqlari tushadigan bo’lsa, stol yoki krovatlar tagiga berkining. Maktab o’quvchilari partalar tagiga kirib, oynaga teskari o’girilib, boshlari va yuzlarini qo’llari bilan berkitib olishlari zarur.

4. Ikkinchi qavatdan yuqorida bo’lsangiz, hech qachon lift yoki zinapoyalarga qarab yugurmang, chunki ko’p hollarda yer qimirlash davrida ushbu qurilmalar birinchi navbatda qulaydi. Bunday hollarda uyning eshigini ochib, uning o’rniga turing. Eshik kesakisi qotib qolsa, xavotir olmang, bu hol imorat devorlarining og’ishidan bo’ladi.

5. Har qanday binoning oynaband devorlaridan uzoqroqda, asosiy devori yonida turishga harakat qiling. Oyna to’siqlardan ehtiyot bo’ling.

6. Sakrashga majbur bo’lgan hollarda zinhor yopiq deraza oynasiga qarab sakramang, oynani taburetka yoki yelkangiz bilan sindirib, keyin sakrang.

7. Odamlar bilan gavjum joylarda (do’kon, kinoteatr, maktab, oliygoh, vokzal) sarosimaga tushmang, binoning asosiy devorlariga, ustunlarga yaqinroq osilib turgan buyumlardan, qandil, shamollatgich, reklama taxtalardan uzoqroq turish kerak.

8. Jarohatlanganda, umuman har qanday xavf bo’lganda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish choralarini o’rganing. Doimo uyingizda dori-darmonlar, birinchi tibbiy yordam ko’rsatish qutichasini saqlang.

Xulosa:

Shuningdek zilzila oqibatida turli davlatlar moliyaviy va iqtisodiy ziyon ko’rmoqda insonlar esa o’z yashash joylaridan ayrilishmoqda va turli xil tan jarahotlaridan aziyat chekishyapti va hatto bu o’limga ham sabab bo’lyapti. Zilzilani oldini olib bo’lmaydi lekin uni sodir bo’lish ehtimolligini bilish orqali u yetkazadigon ziyonlar hajmini kamaytirish yoki oldini olish ham mumkun va buni amalga oshirish uchun Seysmologlar dunyoda vujudga kelayotgan zilzilalar haqida o’rganib kelajakda ro’y berishi mumkun bo’lgan bu tabiiy ofatni keltirib chiqarishi mumkun bo’lgan ziyonlarni oldini olishga va odamlarni ogohlantirishga harakat qilishmoqda va aynan shu tufayli Seysmalogiya fani ham rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullabekov K.N., Zilziladan saqlanish mumkinmi? T., 1992; Karimov F.X., Zemletryaseniye, M, 1993; Otaboyev X., Zilzila T., 1988.
2. O’ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Umarov G’.-., HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” fanidan MAJMUA, Samarqand.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>
5. <https://cyberlenika.ru>